



MURDANI EKSGUMATSIYA QILISHNING TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNING ISBOTLASHDAGI AHAMIYATI

Агоев Шукурулло Сафарбоевич

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

“Тергов фаолияти” кафедраси ўқитувчиси

Саломқулов Жавлонбек Жўрабек ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

3-босқич курсанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12151516>

Annotatsiya. Mazkur maqolada murdani eksгumatsiya qilish tergov harakatiga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqilgan, uning tushunchasi, mohiyati va ushbu tergov harakatining isbotlashdagi ahamiyati tahlil qilinib, takomillashtirish istiqbollari yuzasidan takliflar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: murda, eksгumatsiya qilish, tergov harakati, isbot qilish.

Аннотация. В данной статье рассмотрены актуальные вопросы, связанные со следственным действием по эксгумации трупа, проанализировано его понятие, сущность и значение этого следственного действия в доказывании, а также высказаны предложения о перспективах его совершенствования.

Ключевые слова: труп, эксгумация, следственное действие, доказательство.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligiga asosan jinoyat ishi yuzasidan to'planadigan dalillar murdani eksгumatsiya qilish yo'li bilan ham to'planadi. Jinoyat protsessida dalillarni to'plashning mazkur usuli ishni sudga qadar yuritish hamda sud bosqichida isbotlash jarayonining samaradorligini ta'minlashga shuningdek, sud organlari tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etishda davlat hokimiyat organlarining rolini inobatga olib, “Yangi O'zbekiston bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – “Inson qadri uchun” hamda “Davlat inson uchun” tamoyillarini real hayotga tadbiiq etishdan iborat ekanini, bu masalada qonunchilika kiritilayotgan yangiliklar, o'zgartirish va qo'shimchalar demokratik jarayonlarning mustahkam huquqiy bazasini yaratmoqda”, (1) - deb ta'kidlaganlarini aytib o'tish joiz.

Jinoyat protsessual munosabatlarda murdani eksгumatsiya qilishning mohiyatini to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur omil ushbu tergov harakatini o'tkazishdan ko'zlanadigan maqsadni to'g'ri tushunishga va uning sifatli o'tkazilishini ta'minlashga imkon beradi. Murdani eksгumatsiya



qilish tergov harakati tushunchasi mazmunini ochib berish uchun avvalo, “murda” hamda “eksgumatsiya” tushunchalariga to’xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir.

“Murda” so’zining lug’aviy ma’nosiga o’zbek tilining izohli lug’atida o’lgan, o’lik, jonsiz, o’lgan kishining jasadi degan mazmundagi izohlar berib o’tilgan (2).

“Eksgumatsiya” so’ziga esa o’zbek tilining izohli lug’atida sud-tibbiy, kriminalistik ekspertiza, patologik-anatomik tekshirish maqsadida murdani ko’milgan yerdan kovlab olish jarayoni, - deya ta’rif berilgan (3).

O’zbekiston milliy ensiklopediyasida “eksgumatsiya (jinoyat prosessida) – shaxs o’limining sababi yoki o’likning shaxsini aniqlash maqsadida ko’milgan murdani qayta kovlab olish” deb ta’rif berilgan (4).

Yuridik fanlari doktori, professor B.N.Rashidovning fikricha, murdani eksgumatsiya qilish deganda, ko’zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalar olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish va qayta ko’rish jarayoni tushuniladi (5).

Amaldagi Jinoyat protsessual qonunchiligida murdani eksgumatsiya qilish tartibi va protsessual rasmiylashtirish to’g’risida normalar mavjud, lekin murdani eksgumatsiya qilish tushunchasi keltirilmagan.

Tergov amaliyotining tahlili shuni ko’rsatadiki, murdani eksgumatsiya qilish tergov harakatini quyidagi hollarda o’tkazish zarurati yuzaga keladi:

Odam o’limi bilan bog’liq holatlarda uning yaqin qarindoshlari murda dafn qilinganidan keyin huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilib, o’lim holati tasodifiy emasligi, bunda kimningdir aybi borligini ta’kidlashadi;

Ayrim hollarda murdani eksgumatsiya qilish tergov harakati tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov jarayonida yo’l qo’yilgan xatolarni bartaraf etish uchun o’tkaziladi. Ya’ni ishni yuritayotgan mansabdor shaxslar tomonidan murdani ko’zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalar olish o’z vaqtida amalga oshirilmasligi yoxud yaqin qarindoshlari tomonidan murdani tekshirishga qarshilik ko’rsatish holatlarining bartaraf etilmasligi oqibatida zarur tergov harakatlari o’tkazilmasdan qoladi.

Yuqoridagi holatlar natijasida murda bilan o’tkaziladigan tergov harakatlari surishtiruv yoki dastlabki tergovning keying pog’onalarida murdani eksgumatsiya qilish yo’li bilan o’tkaziladi.

Murdani eksgumatsiya qilish isbot qilishga qaratilgan bo’lib, jinoyat ishi bo’yicha surishtiruv va dastlabki tergovda dalillarni topish, olish va prosessual tartibda qayd etish maqsadida o’tkaziladigan tergov harakatlaridan biridir.



Shuningdek, murdani eks gumatsiya qilish tergov harakatini o'tkazish uchun quyidagi tergov harakatlarini o'tkazish zaruratining yuzaga kelishi asos bo'ladi:

- Murdani ko'zdan kechirish;
- Murdani tanib olish uchun ko'rsatish;
- Murdadan ekspertiza tekshiruv uchun namunalari olish.

Murdani eks gumatsiya qilib ko'zdan kechirish uning badanidagi ish uchun ahamiyatga ega xususiyat yoki alomatlarni, alohida belgilarni hamda jinoyatga aloqador bo'lgan izlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ko'zdan kechirishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar murdani eks gumatsiya qilmasdan tibbiyot ma'lumotnomasi, kasalik varaqasi va boshqa hujjatlardan aniqlash imkoni bo'lsa, mazkur tergov harakati o'tkazilmaydi.

Murdani eks gumatsiya qilib tanib olish uchun o'tkazish dastlabki tergov va surishtiruv davrida olingan ko'rsatuv aynan shu shaxsga oid ekanini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Murdani tanib olish uchun ko'rsatish ish bilan o'zaro bog'liq yo'nalishlarda davom etishi kerak. Birinchisi, murdani tanib olish natijalarini ish bo'yicha allaqachon to'plangan dalillar bilan taqqoslash. Ikkinchisi - dastlabki tergov va surishtiruv davrida olingan ko'rsatuv ishonchliligini baholashga imkon beradigan qo'shimcha dalillarni faol to'plash. Murdada morfologik belgilar qisqa vaqt ichida o'zgarishlarga uchraydi, keyin esa butunlay yo'qoladi, bu esa murdaning shaxsini aniqlashni qiyinlashtiradi. O'lim insonning tashqi qiyofasini sezilarli darajada o'zgartiradi. Professor B.A. Salaev tashqi identifikatsiya xususiyatlariga qarab murdalarni quyidagicha tizimlashtirishni taklif etgan:

- Tashqi belgilari yaxshi saqlangan murdalar, shuningdek, tashqi belgilari mayda o'zgarishlarga uchragan (qon, kir, zarar va hokazo) murdalar;
- Tashqi ko'rinish belgilari sezilarli o'zgarishlarga uchragan (chirigan, yuzida yumshoq to'qimalarning bo'laklari, alohida elementlar va boshqalar yo'q) murdalar;
- Tashqi ko'rinishi sezilarli darajada o'zgarganligi sababli shaxsini aniqlashning imkoni bo'lmagan (ko'ngirlangan, bo'laklangan, shakli buzilgan va hokazo) murdalar.

Biroq, uchinchi guruh uchun, identifikatorlarga tanib olish uchun ko'rsatish samarasizdir. Agar ularda tatuirovka, pirsing va boshqalar kabi individual xususiyatlar saqlanib qolgan bo'lsa, bu o'z samarasini berishi mumkin.

Murdani eks gumatsiya qilib tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin identifikator (tanib oluvchi) shaxs "og'zaki portret" usuli yordamida so'roq qilish majburiydir. Tergovchi so'roq jarayonida asosiy e'tiborni sodir bo'lgan



hodisaning mohiyatiga emas, balki shaxsning tashqi ko'rinishining umumiy va alohida belgilariga, tashqi ko'rinishning alohida elementlarining yorqin belgilariga yoki hatto maxsus belgilarga qaratadi. Shuningdek, so'roq jarayonida inson tanasida ko'zga tashlanadigan va uzoq davom etadigan belgilarga alohida e'tibor qaratish lozim, masalan: tish holatining tuzilishi, malformatsiyalar, skelet tuzilishidagi anomaliyalar va boshqa jismoniy nuqsonlar, operatsiyalar izlari, jarohatlar, kuyishlar, tatuirovkalarning mavjudligi va hokazolar.

Tergovchi identifikatorni murdani eks gumatsiya qilish va tanib olish uchun ko'rsatish paytida noqulay vaziyatga tushib qolmasligi uchun psixologik to'siqlarni bartaraf etib, duch keladigan qiyinchiliklarga tayyorlashi kerak. U identifikatorga o'zining protsessual vazifalarini qanday tartibda bajarishini, tanib olish uchun murda qanday shaklda va qanday hollarda taqdim etilishini tushuntiradi.

Agarda tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini fotosuratdan foydalanib o'tkazish imkoniyati bo'lsa, murdani eks gumatsiya qilish tergov harakatini o'tkazmaslik tavsiya etiladi.

Murdaning o'limiga sabab nima bo'lganini va boshqa muhim holatlarni aniqlash maqsadida bir qator sudga oid ekspertizalar tayinlanadi. Ushbu ekspertizani o'tkazishda ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish zaruriyati yuzaga keladi. Agar aniqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar tibbiyot ma'lumotnomasi, kasalik varaqasi va boshqa hujjatlardan aniqlash imkoni bo'lmasa, murdani eks gumatsiya qilish tergov harakati o'tkaziladi.

Professor V.I.Shikanov ekspertiza tekshiruvi uchun na'munalar olish uchun murdani eks gumatsiya qilish asoslari sifatida quyidagilarni keltiradi:

1. Huquqni muhofaza qilish organlarida sud-tibbiy ekspertizadan o'tkazilgan murda haqiqatda hech bir tekshiruvlarsiz ko'milganligi haqida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lsa;
2. Murda patolog yoki sud eksperti tomonidan tekshirilgan, ammo tuzilgan hujjatlar sifatsiz yoki to'liq bo'lmaganligi haqida yetarli asoslar mavjud bo'lsa;
3. Murda sud-tibbiyot eksperti tomonidan ko'zdan kechirilgan, biroq taqdim etilgan ekspertiza xulosasidagi bir qator ko'rsatmalar dastlabki tergov materiallariga jiddiy zid va shubha uyg'otsa;
4. Murdaning sud-tibbiy ekspertizasi ancha sinchkovlik bilan o'tkazilgan, biroq ma'lum vaqt o'tgach, tergovchida faqat qo'shimcha tadqiqot orqali javob berish mumkin bo'lgan savollar paydo bo'lsa;



5. Murda yoki uning qismlari sodir etilgan jinoyat izlarini yashirish maqsadida yashirinchalik ko'milganligi haqida yetarlicha asoslar mavjud bo'lsa (6).

Shunday qilib, biz tergov harakati sifatida murdani eksqumatsiya qilishning maqsadi ma'lum bir ob'ektni - shaxs o'limining sababi, murdani shaxsini aniqlash va ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadida ko'milgan murdani qayta ko'mish jarayoni, degan aniq xulosaga kelishimiz mumkin. Eksqumatsiya har doim dalillarni to'plashga qaratilgan, dalillar to'plash bilan bog'liq bo'lmagan holda, eksqumatsiya o'tkazish qonunga ziddir.

Yuqoridagi harakatlar protsessual qonunda qayd etilgan normalarga asosan amalga oshirilishi lozim. Murdani eksqumatsiya qilish oxirgi chora sifatida o'tkaziladigan tergov harakati ekanligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Surishtiruv yoki dastlabki tergovda aniqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni murdani eksqumatsiya qilmasdan turib aniqlashning imkoniyati bo'lgan holatlarda ushbu tergov harakatlari o'tkazilmasligi lozim.

Bundan tashqari, murda qabrdan qaytib olinganidan so'ng, protsessual harakatlar, ya'ni ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish hamda ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish bilan bog'liq jarayonlarni o'tkazish hududiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

Qabriston hududida;

Eksqumatsiya qilingan joyga yaqin bo'lgan sud-tibiyot o'likxonasida.

Agarda murda bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar qisqa muddat talab etsa yoki bir kun ichida yakunlansa, qabriston hududida amalga oshiriladi. Aks holda bu jarayonlar sud-tibiyot o'likxonasida o'tkaziladi (7).

Demak, murdani eksqumatsiya qilishning asosiy maqsadlaridan biri jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli, haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash va mustahkamlashdir. Murdani eksqumatsiya qilishda murdani tashqi ko'zdan kechirish va uning ichki organlarini tadqiq qilish o'lim sababini aniqlashdan tashqari, uni vujudga keltiruvchi hollarni tiklashga imkon beradi, bu esa jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Murdani eksqumatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida batafsil tavsiflangan. Tergov amaliyotida murdani eksqumatsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Qabrni ochishdan oldin batafsil va izchil foto yoki video tasvirga tushirgan holatda - qabrning paydo bo'lishi, qabrdagi tobutning holati va



tobutdagi murdaning holati, shuningdek, murdani ekgumatsiya qilish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning barcha harakatlari qayd etilishi kerak.

2. Eng avvalo qabrning joylashgan joyiga e'tibor beriladi, uning ko'rinishi va holatini, tuproq yuzasi va o'simlik qoplamining tabiatini tasvirlanadi. Devor, sopol tepalik va qabr inshootining mavjudligi yoki yo'qligi (yuqorida -qabr toshi, yodgorlik, obelisk, stela, haykal, xoch), odatda yer osti yoki dafn etilgan inshootni ifodalovchi qabrning holati, ularning tashqi ko'rinishi, holati va xavfsizligi qabr toshiga yoki ro'yxatga olish lavhasiga yozuvlar bilan qayd etiladi.

3. Tuproq qatlam-qatlam, oyoqdan boshgacha bo'lgan yo'nalishda (agar murdaning qabrdagi holati ma'lum bo'lsa) olib tashlanadi va qabrning turli chuqurliklarida joylashgan tuproqning xususiyatlari bayonnomada qayd etilgan bo'lsa, - rangi, namligi va boshqalar. Tasodifiy shikastlanmaslik uchun imkon qadar to'liq qazish ishlarini olib borish va murdaning qoldiqlarini yerdan tozalash kerak.

4. Tuproqni to'liq olib tashlagandan so'ng, tobutning to'g'ri joylashishini yoki murdaning yerdagi holatini, dafn chuqurligini, tobut va murda darajasidagi tuproqning holatini qayd qilish kerak. Yerdan olib tashlangandan so'ng, tobutning holati tekshiriladi va tavsiflanadi: u tayyorlangan qoplama va bezaklarning mavjudligi (materialning tabiati, rangi, tashqi ko'rinishi va boshqalai) jasad, tuproq bilan ifloslanganligi, mog'or mavjudligi va ko'rinishi), tobutning o'lchamlari va ularning ko'milgan murdaga mos kelishi, mahkamligi, qopqoqni mahkamlash usuli (mixlangan, vintlar, vintlar, qisqichlar yoki lehim bilan birlashtirilgan), joylashuvi. qisqichlar (ochiq, yopiq), shikastlanishning mavjudligi yoki yo'qligi (tashqi va ichki), shuningdek, tobutning qabrda bo'lishi bilan bog'liq o'zgarishlar.

5. Tobut olib tashlangandan so'ng tanani qoplagan to'qima olib tashlanadi, murdaning tobutdagi holati va holati, murdaning holati va kiyimi (saqlanishi, o'limdan keyingi o'zgarishlar darajasi va xarakteri, shikastlanishi, ifloslanishi). qayd qilinadi. Agar murda yetarli darajada saqlanib qolsa, uning shaxsi aniqlanadi. Tabutdan topilgan ashyolar tekshiriladi va bayonnomaga yoziladi. Ekskumatsiyaning asosiy bosqichlari va barcha muhim tafsilotlar suratga olingan.

Sud-tibbiy ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng, murda sud-tibbiy ekspertiza uchun yuboriladi va shundan so'ng u yana dafn etiladi. O'zining o'ziga xosligi tufayli murdani jinoyat ishida saqlash mumkin emas, ammo ekskumatsiya paytida olingan fotosuratlar yoki video tasvirlar jinoyat ishi materiallariga dalil



sifatida ilova qilinishi mumkin. Shuningdek, ilgari eks gumatsiya qilingan murdani qayta ko'mish to'g'risidagi tegishli hujjat uning joylashgan joyini aniqlash uchun ish materiallariga ilova qilinishi mumkin.

6. Qazish jarayonida turli mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin, ular tergovchining diqqatini tergov uchun qiziqtiruvchi ob'ektlar belgilariga qaratishi mumkin. Eks gumatsiya paytida mutaxassislar, sud eksperti yoki boshqa mutaxassislik shifokori ham ishtirok etadilar. Sud-tibbiyot ekspertining vazifalariga quyidagilar kiradi: tergov harakati sodir bo'lgan joyda murdani ko'zdan kechirish imkoniyatini oldindan aniqlash; murdani o'likxonaga yoki boshqa tegishli binolarga tashish zaruratini aniqlash; eks gumatsiya joyida harakatlaringizni rejalashtirish; zarur jihozlarni tayyorlash (asboblarni biologik ob'ektlarni olib tashlash, qadoqlash va markalash uchun vositalar, qiyosiy tadqiqot uchun namunalar). Eks gumatsiya ishtirokchilarining tasodifiy jarohatlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sud-tibbiyot shifokori, shuningdek, tergovchiga murdani qabrdan olib chiqish va tadqiqot olib boriladigan joyga olib borish vazifasi yuklatilgan shaxslarga ko'rsatma berishda yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bevosita murdani eks gumatsiya qilish tergov harakatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri anglanishi hamda mazkur tergov harakatining o'ziga xos xususiyatlariga oid qoidalarini o'z vaqtida, to'la-to'kis va to'g'ri qo'llanilishi ushbu tergov harakatini samaradorligini oshirish bilan birga isbot qilishdagi daliliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Муродов Б., Қулбеков О. Номусга тегиш жиноятларини тергов қилишда исботланиши лозим бўлган ҳолатлар //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 98-104.
2. Муродов Б.Б. Основания прекращения уголовного дела в связи с истечением срока давности привлечения к ответственности (опыт Узбекистана) //Вестник экономической безопасности. – 2016. – №. 1. – С. 177-182.
3. Муродов Б.Б Совершенствование основания прекращения уголовного дела в связи с истечением срока давности привлечения к ответственности //Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. – №. 3. – С. 47-50.
4. Муродов Б. Совершенствование основания прекращения уголовного дела в связи с истечением срока давности привлечения к ответственности //Обзор законодательства Узбекистана. – 2017. – №. 1. – С. 69-72.



5. Муродов Б., Ботаев М. Анализ основ реабилитации невиновных лиц в уголовном процессе //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 166-176.
6. Суюнов Ш., Хусинов Ш. Рецидив жиноятчилиқ тушунчаси ва унинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 150-156.
7. Суюнов Ш., Исмаилова Ш. Бир гуруҳ шахслар томонидан содир этиладиган жиноятларни тергов қилишда юзлаштириш тергов ҳаракатининг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 140-144.
8. Суюнов Ш., Азаматов А. Суриштирув институтининг ривожланиш истиқболлари //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 9-14.